

MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA FANLARARO INTEGRATSIYA LASHUV YO‘LLARI VA MEXANIZMLARI MAZMUNI VA MOHIYATI.

*Saxob Karimov,
“Musiqqa ta’limi” kafedrası.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada to‘g‘ri olib borilgan musiqa tarbiyasi yosh avlodni har tomonlama rivojlangan komil va yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllanishidagi o‘rni beqiyos ekanligi, buning uchun esa musiqa darslarini qiziqarli va mazmunli o‘tishda fanlararo integratsyalashuvini kuchaytirish lozimligi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Kuy, qo‘shiq, musiqa, qo‘shiq kuylas, estetik tarbiya, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, o‘qituvchi, xor bo‘lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash

Insoniyat qadim – qadimdan kuy va qo‘shiqni insonni ezgulik, yaxshilik kabi fazilatlar olamiga yetaklaydigan, insonga najot va taskin beruvchi, uni darddan, iztiroblardan xolos qiluvchi, inson qalbini to‘g‘ri yo‘lga chorlaydigan: – xudbinlik, xiyonotkorlik, yovuzlik, ikki yuzlamachilik, yolg‘onchilik, xasadgo‘ylik, takabburlik, buzg‘unchilik, qo‘yingki barcha shaytonniy illatlardan insonlarni asraydigan qudrat deb tan olingan. Kuy va qo‘shiq tarbiya manbai bo‘lib inson odobi, axloqi, sharm, ibo va xayosini tarbiyalaydi, millatning qiyofasi, ruxiyati va shaklu shamoyilini belgilaydi, deb qaralgan .

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Kuy, qo‘shiq ilhombaxsh, shifobaxsh xamda xayotbaxsh kuch” deb ta’kidlagan. Mashxur rus olim – pedagoglardan D.B.Kobalevskiy: “Musiqqa tarbiyasi – bu faqat insonni musiqachi qilib tarbiyalash emas, eng avvalo, yosh murg‘ak bola, so‘ngra shaxsni barkamol xislat va fazilatlar bilan kamol toptirish vazifasini o‘z burchi deb biladi. Musiqa san‘atining o‘ziga xos xususiyati uning tovushlar obrazi orqali kishilarning ichki dunyosini, xis-tuyg‘ularni, fikr va kayfiyatlarini ifodalay olishdadir. Musiqa san‘atining xar xil vaziyatlari orqali ayniqsa, kishining xis-tuyg‘ulariga chuqur ta’sir etadi. Uni tushunishda badiiy asarlarning mazmunini ongli idrok etish bilan bir qatorda emotsional ruhiy idrok etish qobilyatiga ega bo‘lish xam muhim rol o‘ynaydi. Bilamizki, musiqa asari xam ongli, xam xissiy idrok etilgandagina

tinglovchilarda chuqur tassurot qoldiradi, estetik kechinma paydo bo‘ladi. Shu o‘rinda buyuk Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning musiqa ilmini keltirib chiqargan sabablar haqidagi fikrlarini qayd etish maqsadga muvofiqdir, -“Men tasdiqlaymanki, substansiya xarakatiga ega bo‘lgandan so‘ng ovozga xam ega bo‘ldi va bu ovoz uch turga bo‘linadi; xususan, baland, past va o‘rtacha. Ovozlar to‘g‘risidagi ilm shu ma‘noda foydaliki, u o‘z muvozanatini yo‘qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi va muvozanatda bo‘lgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligini uchun xam foydalidir”.

Ko‘rinib turibdiki buyuk allomamiz ma‘no kasb etgan bu fikrlari musiqa va kuyga bo‘lgan e‘tiborini yanada oshiradi. Dono xalqimiz o‘z naqlarida –“Nasru nazm, musiqa-yu, qo‘shig‘-u raqs, tasviru sahna, xullas san‘at ma‘naviy, ruhiy kamolot cho‘qqilari sari eltuvchi bebaho vositadir”, - deb bejiz ta‘kidlamagan.

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, bola tarbiyasida izchil, to‘g‘ri olib borilgan musiqiy tarbiya yosh avlodni go‘zalikka, mardlikka, vatanparvarlikka chorlaydi, salbiy narsalardan nafratlanish hissi tabiatga, kishilarga bo‘lgan mehr-muhabbatni kuchaytirishga yordam beradi. Shunday ekan musiqaviy tarbiya jarayonida o‘quvchilarda yuz beradigan psixologik, fiziologik o‘zgarishlarni hisobga olgan holda ijobiy faoliyat ko‘rsatishlarni taqazo etadi degan fikrga kelish mumkin. Chunki o‘rta yoshdagi o‘quvchilar mutatsiya davrini boshdan kechiradilar. Shuning uchun ham ular tovushlarning tiniq va nuqsonsiz bo‘lishiga erishish uchun vaqtning ko‘p qismini qo‘shiq aytishga emas, tinglanadigan musiqa asarning mazmuni, ulardagi g‘oyaviy motivni to‘g‘ri idrok qila olishga sarflashga qaratmoq lozim. Shundagina o‘quvchilar tovushlarining nafis va tiniq bo‘lishiga, qo‘shiq matnlarining mazmunini to‘g‘ri idrok etib, tushunib olishlariga xamda musiqa tinglash ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga sabab bo‘ladi. Bu esa, xar bir o‘qutuvchidan ijrochilik mahorati bilan bir qatorda katta pedagogik mahoratga xam ega bo‘lishlikni taqozo etadi.

Ma‘lumki, musiqa darslarining o‘ziga xos tomonlari ko‘p bo‘lib, shulardan xor bo‘lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash va nota bilan kuylash kabi asosiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Albatta, mazkur dars bosqichlarini mutaxassis

bo'lmagan kishilar bajara olmaydilar. Natijada dars zerikarli bo'lib, bolalarning musiqaga bo'lgan qiziqishlari susayadi va ular qo'shiq kuylashdan yiroqlashib qoladilar. Shuni nazarda tutib, bolalarning badiiy tarbiya sohasidagi faoliyatini e'tibordan chetda qoldirmay, har bir fanni o'z mutaxassisiga topshirish kerak.

Bolalarni musiqa san'atiga qiziqtirish uchun badiiy havaskorlar to'garagining kamida 3 ta sho'basini mutaxassis rahbar bilan ta'minlab ishga solish maqsadga muvofiqdir. Masalan, xor, xalq cholg'u asboblari dastasi, ashula va raqs kabi sho'balar belgilangan vaqtda ishlab tursa, unga qatnashayotgan bolalarning qalblari quvonchga to'lib, maktab ularning sevimli maskaniga aylanib boradi.

Umuman olib qaraganda maktabdagi musiqiy tarbiya o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitish bilan birga, ularning ijodiy qobiliyatini ham o'stirib boradi. Musiqaning sehrli tovushlari hayotni yangi bir bo'yoqlarda ko'rsatib, yosh avlodni estetik jihatdan barkamol bo'lgan kishilar idealiga yaqinlashtirib boradi.

Estetik tarbiyaning samaradorligini oshirish maqsadida pedagogika institutlarining hamma fakultetlarida, ayniqsa o'zbek filologiyasi fakultetida musiqa san'ati va folklori hamda boshqa san'at turlari ham o'qitilishi kerak deb hisoblaymiz.

Adabiyot hamisha musiqa bilan birga yashagan. Shu sababli ham adabiyot fakultetlariga hissiyotli va dardli o'quvchilarni qabul qilish zarur. Ularning, eng avvalo she'riyatidan, biroz bo'lsada musiqadan ham xabari bo'lishi kerak. Shundagina u kelgusida yetuk adabiyotchi bo'la oladi.

Aytishlaricha, ulug' bobomiz Alisher Navoiy yashagan XV-asrda Hirotdan deyarli har bir xonadonda dutor osig'liq turgan ekan. Binobarin, o'sha zamonda kattadan-kichik barcha musiqa shaydosi bo'lgan. To'la ishonch bilan aytish mumkinki, qo'shiq-musiqa taronalari tabiiy va rangin ohanglarda yangragan xonadonda inson ma'naviy olami ko'rk ochadi. Demakki, bizning kelajagimiz bo'lgan farzandlarimiz qabohat va razolat girdobidan mutlaqo yiroq holda, tabiat in'om etgan yaratuvchilik qudrati ila go'zallik koshonasini o'z qo'llari bilan bunyod etadilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki , fan va ijodiy mehnat azaldan san'at bilan xamisha xamoxang yashaydi. Kelajagimiz bo'lgan yosh avlod go'zallikning istemolchisigina bo'lib qolmasligi, balki o'zi estetik boyliklar yaratilishi o'ziga va atrofdagi barcha narsalarga go'zallik bag'ishlashi kerak. Shu mas'ulyatli ishga raxmonalik qilish xar bir o'qituvchining, xar birimizning muqaddas burchimizdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.Rajabov. Maqom asoslari.T,1992.
2. A.M.Forobiy. Fozil odamlar shaxri.T, 1993.176-bet
3. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari(O'quv uslubiy qo'llanma) Toshkent 2020-yil 186-bet.
4. A.Jabborov,S.Begmatova, M.Azamova. O'zbek musiqasi tarixi. Toshkent 2018-yil.